

KORREKSION MASHG'ULOT RAHBARI OSTIDA RITMIKA HARAKATLARNI TAKRORLASH VA UNING SAMARADORLIGI

Dehqonova Muborakxon G'iyoziddin qizi

CHDPU o'qituvchisi,

Maxsus pedagogika kafedrası (93-128-12-94; dehqonova.m@cspi.uz)

Annotatsiya: Ushbu maqolada korreksion mashg'ulotlarni o'qituvchisi boshchiligidagi o'quv jarayonini to'g'ri tashkil qilish va uning ta'sir mehanizmini oshirgan holda ish samaradorligiga erishish mumkinligi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim tarbiya, o'quv jarayoni, korreksion mashg'ulot, maxsus ta'lim, boshqaruv, intizom, pedagog, ritmika, ta'sir.

Ta'lim-tarbiyaviy ishlar bolalarning fikrlash qobiliyati, diqqati, ish qobiliyati, xotirasi, nutq va tafakkuridagi kamchiliklarni bartaraf etilishiga qaratilgan bo'lib, bunday bolalarga bilim berishda o'qituvchi uning o'ziga xos individual xususiyatlarini e'tiborga olgan holda maxsus sharoitda, maxsus usullar bilan ishlaydi, tegishli yordam tashkil etadi. Maxsus ta'lim muassasalarining ta'lim-tarbiya jarayoni umum va maxsus korreksion ta'lim talablari asosida o'quv reja, korreksion dastur va darsliklar asosida amalga oshiriladi. Dars jarayonida har bir bolaning individual xususiyati, qobiliyati va imkoniyatini e'tiborga oladi. (Yuqorida qayt etilgan nuqson turi bo'yicha tashkil etilgan o'quv muassasalarida mutaxassis defektologlar (logoped, tiflopedagog, surdopedagog, oligofrenopedagog) faoliyat ko'rsatadi.) Ta'limning maqsad va vazifasiga ko'ra bolalar, o'smirlarga umumiy ta'lim bo'yicha bilim berish bilan bir qatorda ularda mavjud bo'lgan nuqsonlarni bartaraf etishga oid korreksion fanlardan mashg'ulotlar o'tkaziladi. Logoritmika-logopediya va defektalogiyaning bir bo'limi hisoblanadi. Logopedik ritmika rivojlanishini tarbiyalash, qonuniyatlarini, shuningdek u yoki bu nutq buzilishlari sindromida psixomotor oruksiyalarning buzilishlari o'rganiladi. Logoritmik tarbiyaning vazifalarini aniqlaydi ularning mohiyatini, vosita va maqsadini ochib beradi. Logoritmikaning asosiy vazifasi nutq buzilishlariga ega shaxslarda to'g'ri nutqni tarbiyalash va nuqsonlarni yoqotish asosida harakat qobiliyatini tarbiyalash va rivojlantirishdir. Logoritmikaning xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi: nutq patologiyasiga ega shaxslarda qo'zg'alish yoki tormozlanish jarayonlarini mashq qildirish uchun sharoit yaratish; bolalarda harakat va ritmika jarayonlarini tartibga solish. Logopedik ritmikaning dastlabki tushunchasi so'z musiqa va harakatning uyg'unlashuviga asoslangan. Ko'rsatilmagan kamchiliklarning o'zaro munosabatlari ulardan birining yoki ular orasidagi anamaliyali rivojlanish hamda nutq buzilishi bo'lgan odamlarni davolashni shart qilib qo'ydi. Logopedik ritmika pand-nasihat va o'ziga xos tamoyillarga qo'yiladi. Ular o'zaro bog'langan va tarbiya, rivojlanish va nutqda buzilish bo'lgan odamlarning funksional tizimi korreksiyasining yagonaligini belgilaydi. Nutqda buzilish bo'lgan odamlarda sog'lomlashtiruvchi vazifasini hal qilish natijasida suyak-muskuil apparatlari mustahkamlanadi, nafas olish, motor, sensor funksiyalar rivojlanadi, muvozanat tuyg'usi, to'g'ri qaddi-qomat, qadam tashlash, chiroyli harakat tarbiyalanadi. Ta'lim beruvchi vazifasining amalga oshirilishi harakat malakasi va ko'nikmasining shakllanishiga, makon va tasavvurlari va qobiliyati ixtiyoriy ravishda borliqda boshqa odamlar va predmetlarga nisbatan siljish, epcchilik, kuch, chidamlilik, bir harakatdan boshqasiga o'tish, harakatlarning uyg'unlashuvi, tashkilotchilik qobiliyatining rivojlanishiga imkon beradi. Ta'lim vazifalarni amalga oshirishda nutqiy patologiyasi bo'lgan odamlar metroritmika, musiqiy madaniyat,

musiqiy idrok va ta'sirchanlik sohasidagi nazariy bilimlarni o'zlashtiradilar. Tarbiyaviy vazifalarni hal qilish nutqiy patologiyasi bo'lgan odamlarda aqliy, ma'naviy estetik va mehnat tarbiyasida yordam ko'rsatadi. Tarbiyaviy vazifalarini hal qilish aynan quyigilarga ko'maklashadi: ohangni sezish, musiqada, harakatda va nutqda ohang ta'sirchanligini his qilish qobiliyatini rivojlantirish; musiqiy obrazlar malakalarni ushbu obraz bilan mos ravishda ohangni, ta'sirchan harakatlantira olish qobiliyatini rivojlantirish, yani yangicha shakl olishni uddalash, badiiy-ijodiy qobiliyatini ko'rsata olish; ijobiy shaxsiy sifatlar, jamoatchilik tuyg'usi, turli faoliyat turlarining qoidalarini o'rganish va boshqalarni tarbiyalash. Mashg'ulotlarning korreksion yo'nalishi nutqiy buzilishlar mexanizmi va tuzilmalarini, logopedik ishning bosqichligi va majmuaviyligini hisobga olishini shart qilib qo'ydi. Logopedik ritmikaning mohiyatini tushunish uchun harakat, harakatlanish ko'nikmasi, harakatlanish malakasi, ohang, ritmika, musiqiy ohang, musiqiy-ohangli hissiyot, musiqiy-harakatlanuvchan tarbiya, harakatli o'yinlar, kineziterapiya, davolash ritmikasi, logopedik ritmika nima ekanligini tushuntirish zarur. Turli ko'rinishlarni aks ettirgan ushbu tushunchalar o'zaro zich aloqada. Ular jamiyatning turli rivojlanish davrida yuzaga kelgan. Ularning mazmuni chuqurlashadi, inson to'g'risida turli-tuman fanlar rivojlanishi doirasida aniqlanib boradi.

References:

1. Dehqonova, M. (2023). THE FIRST STAGES OF ENSURING CONTINUITY IN THE ELIMINATION OF SPEECH DEFECTS OF SPEECH-IMPAIRED CHILDREN. *Science and innovation*, 2(B2), 55-58.
2. Ghiyosiddinovna, D. M. (2023). Specific Characteristics of Logopedic Work with Blind Children. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY*, 4(1), 101-105.
3. G'iyosiddinovna, D. M. (2022). 4+ 2 TA'LIM TIZIMIDAGI O'RNI. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(10), 389-393.
4. Feruzakhon, Q., Khusnora, Y., & Dinara, A. (2022, April). Peculiarities of the psyche of deaf and hard of hearing children. In *Next Scientists Conferences* (pp. 24-27).
5. Muborak, D., & Lobar, S. (2022). MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARDA NUTQNING KECH RIVOJLANISHI. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(10), 345-349.